

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA BADIY-ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Nurullayev Firuz Fayzulloyevich,  
Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.032>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at darslarida badiiy-estetik madaniyatini rivojlantirish, boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlari haqida so'z borgan. Boshlang'ich sinflarda qo'llanishi mumkin bo'lgan metodlar haqida va pedagogik mahorat haqida, batafsil yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, tasviriy san'at, xususiyatlar, sinf, ta'lim mazmuni, maktab, psixologiya, bilim, qobiliyat, layoqat, pedagogik mahorat, konsepsiya.*

## DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC CULTURE OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS IN FINE ARTS CLASSES

Nurullayev Firuz Fayzulloyevich,  
Teacher of Bukhara University of Innovations

*Abstract. In this article, the development of artistic and aesthetic culture of primary school students in visual art classes, the specific features of teaching visual art in primary classes, first of all, the content of education in these classes for children of junior school age the characteristics and psychology of youth, interest, existing knowledge and skills and abilities were discussed. The methods that can be used in primary classes and pedagogical skills are explained in detail.*

*Key words: elementary school, visual arts, features, class, educational content, school, psychology, knowledge, ability, ability, pedagogical skill, concept.*

## РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Нуруллаев Фируз Файзиллоевич,  
Преподаватель Бухарского университета инноваций

*Аннотация. В данной статье рассматривается развитие художественно-эстетической культуры младших школьников на уроках изобразительного искусства, особенности преподавания изобразительного искусства в начальных классах, прежде всего, содержание образования в этих классах для детей младшего школьного возраста. обсуждались особенности и психология молодежи, интересы, имеющиеся знания, умения и навыки. Подробно объясняются методы, которые можно использовать в начальных классах, и педагогические навыки.*

*Ключевые слова: начальная школа, изобразительное искусство, особенности, класс, содержание образования, школа, психология, знания, умения, способности, педагогическое мастерство, понятие.*

**Kirish qismi.** O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11- iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Zamon rivojlangan sari, sifatli ta'limga bo'lgan talab ham oshib boradi. Bu esa, o'z o'rnida pedagogik mahorati yuqori darajadagi, o'qituvchilarga bo'lgan talabni ham oshirib boradi. Shunga ko'ra, har bir o'quv predmeti bo'yicha dastur, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish bilan birga, ularni o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi ishlab chiqiladi

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Ta'lim-tarbiya nazariyasi tajribasidan shu narsa ma'lumki, umumiy ta'limning asosiy bosqichi boshlang'ich sinflar (1—4-sinflarda) davri bo'lib, unda bola shakllanadi. Chunki bola ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy jihatdan g'oyat tez rivojlanadi. Bu davrda bolalar barcha bilimlar zaminini o'zida mujassam qilib, jami fanlardan boshlang'ich ma'lumot oladi. Bolalar bu davrda moddiy olamni ko'rishni, kuzatishni, ulardan olgan taassurotlarni tekshirishni o'rganadi. Bu malakalar boshlang'ich sinflarda o'rganadigan o'quv fanlari darslari asosida amalga oshiriladi. Shu boisdan boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan tasviriy san'at o'quv fani ham bugungi bolalarimizning ta'limiy va tarbiyaviy sohalarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at fani bolalarga tabiat va jamiyat qonunlarini, ularning shakli, tuzilishi, rangi, o'zaro bog'liqligi haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Bu ularning yoshligidan materialistik dunyoqarashlarini shakllantirib, uni rivoj toptiradi. Ma'lumki, maktabdagi biron fan tabiat va uning elementlarini o'quvchiga shakli, tuzilishi, rangi va mazmun jihatidan o'rgatmaydi. Buni faqat tasviriy san'at o'quv predmeti amalga oshiradi. Shu boisdan bolalarning yoshligidan boshlab, tasviriy san'at o'zining ta'limiy va tarbiyaviy sohalarining sir-u asrorlarini ularga ochadi. 1-sinf o'quvchisiga tasviriy san'at oddiy chiziq nimadan iborat, uni qanday chizish kerak, shakl nima, u qanday tasvirlanadi, shaklni naturadan olib, daftar yuzasiga qanday tushiriladi, barg, o'simlik, daraxtlar, qush va hayvonlar, ularning tuzilishi va ranglari haqida dastlabki ilmiy ma'lumotlarni beradi. Predmetlarni ko'rishni, narsalar shaklidagi o'xshashliklar, farqlar, ularning shakllanishi va rivojlanishi, ranglari, ranglardagi o'xshashliklar kabi hali bola bilmaydigan narsa va voqealar haqida, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi bo'yicha ma'lumot oladilar. Bu jarayon 2—3 va nihoyat 4-sinflarda o'sib, takomillashib, rivojlanib boradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili Boshlang'ich sinflardagi tasviriy san'at dasturi narsaning o'ziga qarab rasm chizish, tematik kompozitsiyalar ustida ishlash, badiiy-amaliy san'at, haykaltaroshlik, san'at asarlarini idrok etish kabi turlarini o'z ichiga oladi. Ammo dasturda 1 -2 - sinflar uchun san'at asarlarini o'rganishga alohida dars soati berilmagan. Bu juda to'g'ri, sababi boshlang'ich sinfdagi asosiy vazifa narsalar rasmini qalamda va bo'yoqda ishlash malakasini shakllantirish va oshirishdan iborat bo'ladi.

Yangi dasturda:

1. Suhbat.
2. Rangtasvir.
3. Grafika (qalam tasvir).
4. Haykaltaroshlik.
5. Me'morchilik.

6. Amaliy va dizayndan iborat bo'lgan olti yo'nalishda bilim malaka berish ko'zda tutiladi. Bu yo'nalishlarning o'quv-tarbiya vazifasi:

1. San'atshunoslik asoslari (faoliyatidan).
2. Tasviriy faoliyat (naturaga qarab rasm chizish va tasavvurlar asosida rasm ishlashdan).

3. Kompozitsiya faoliyati (mavzuli va bezakli kompozitsiya)dan iborat bo'ladi. Bu vazifalarning bajarilishi rangtasvir, qalamtasvir (grafik), haykaltaroshlik mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Boshlang'ich ta'limning 1—2-sinflarida san'at asarlarini o'rganish bo'yicha alohida dars soati berilmagan bo'lsa-da, rasm chizish mashg'ulotlarida bir necha san'at asarlari o'ziga xos talabda tahlil qilinadi. 3-sinfda 2 soat suhbat beriladi. Bunda «San'atda rang, rang turlari, sovuq va issiq ranglar», «San'atda turmush voqealarining tasvirlanishi» mavzulari o'rganiladi. Bu mashg'ulotlarda o'qituvchi bolalar bilimiga, yoshiga ko'ra san'at asarlarini tanlaydi. Unda atoqli rassomlarning manzara, portret, turmush janrida yaratilgan asarlari tahlil qilinadi. Suhbatda tabiatda rang, ularning turlanishi, issiq va sovuq ranglar, ularning san'at asarining yaratilishida tutgan o'rni, shuningdek, san'at asarlarining janrlarga, turlarga bo'linishi va turmush janrida yaratilgan asarlarning tuzilishi, undagi ranglarning ishlatilishi haqida ma'umotlar beriladi.

Tasviriy san'at darslarini tashkil etishda turli uslublarning qo'lanilishidan qat'iy nazar, o'qitish didaktikasining tarbiyaviylik, ilmiylik, izchillik, ketma-ketlik, ko'rgazmalilik, nazariyot bilan amaliyotning birligi kabi tamoyillariga doimo asoslanadi. Chunki dars usullarining barchasi o'qitish didaktikasi asosida amalga oshiriladi. Didaktika sinf — dars tizimining ilmiy asosi bo'lib, didaktika talabiga javob bermaydigan dars o'z maqsadiga erisha olmaydi va oldiga qo'ygan vazifani bajarmaydi. Shuningdek, tasviriy san'atning har bir dars mashg'uloti predmetlararo bog'lanish tamoyili asosida ishlaydi. Predmetlararo bog'lanish darsning ilmiylikini, izchilligini, amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Predmetlararo bog'lanish darsini va uning o'quv materiallarini boshqa o'quv fanlari bilan bog'laydi. o'quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilim va malakalaridan tasviriy san'at darslarida foydalanishga o'rgatadi. Ular bu bog'lanish asosida dars materialini osonroq o'zlashtirib olishadi. O'qituvchining dars uslubini to'g'ri tanlashi va undan unumli foydalanishi o'ziga osonroq sharoit yaratib, o'quv materialini oson, qisqa, ilmiy asosda va tushunarli qilib o'quvchiga yetkazadi.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish usuli deganda, o'qituvchi dars materialini o'quvchilarga osonroq yetkazish va o'quvchilarga dars materialini ko'rsatib, tushuntirib berish mazmunida ifodalanadi. Shuning uchun o'qituvchi dars materialini «Og'zaki bayon etish» metodining suhbat, hikoya, ta'ruza, savol-javob uslublaridan foydalanib, o'quv materialini o'quvchilar ongiga joylash taraddudida bo'ladi. Bu uslublar uning qaysi biridan foydalanishni dars jarayonining borishidagi pedagogik texnologiya vaziyatlari belgilaydi. Shu boisdan tasviriy san'at o'qituvchisi darsdagi pedagogik texnologiya va psixologik vaziyatga ko'ra, «Og'zaki bayon etish», «K o'rgazmali o'qitish» va «Amaliy ishlar» metodlaridan ijodiy foydalanaveradi. Chunki darsda yangi dars (mavzu) materialini «Og'zaki bayon etish» metodida tushuntirib beradi. Shu suhbat davrida o'qituvchi ko'rgazmali o'qitish metodidan ham foydalanaveradi. Chunki, o'qituvchi bayon etayotgan har bir ma'lumotni ko'rgazma materialini asosida tushuntirib beradi. Shuning uchun ham atoqli pedagoglardan biri, maktabda ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lmaydigan bir o'quv fani bor, bu fan tasviriy san'atdir, degani ham bejiz emas. Haqiqatan ham tasviriy san'atning har bir dars-mashg'uloti ko'rgazmali o'qitishni talab qiladi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish bo'yicha ko'rgazma materiallari ikki turga bo'linadi:

- natural — predmetlarning tabiiy holatdagi ko'rinishi;
- tasviriy ko'rgazmalar bo'lib, ular zavod, fabrika, sex va ustaxonalarda tayyorlanadi. Tabiiy ko'rgazmalar tabiiy elementlar, uy-ro'zg'or va turmushdagi qo'llaniladigan predmetlar, daraxtlar, ularning bargi, guli, shoxchalari, mevalari, ro'zg'or buyumlar, mehnat, o'quv qurollari, sport, san'at buyumlari kabilardan iborat bo'lib, ular o'qituvchi va o'quvchilar kuchi bilan yig'iladi va naturalar fondiga kiritiladi. Tabiiy ko'rgazmalar — dars materialini tushuntirishda ko'rgazma material bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu ko'rgazmalar darslarni tashkil etish va o'tkazishda didaktik material bo'lib ham xizmat qiladi.

«Ko'rgazmali o'qitish metodi» ko'rish, kuzatish, idrok etish, illustratsiyalar bilan ishlash, reproduksiyalar namoyishi, ekranli vositalarni ko'rish, dalaga, zavod-fabrikalarga, ko'rgazma zallariga, muzeylarga, me'moriy obidalarga poxodlar (ekskursiyalar) kabi uslublar asosida faoliyat ko'rsatadi. Ko'rgazmalarning yana bir turi tasviriy ko'rgazmalar bo'lib, ular zavod-fabrikalarda rassomchilik sexi va ustaxonalarda tayyorlanadi. Ko'rgazmalarning bu turiga: gipsdan ishlangan geometrik shakllar, rozettalar, gul shoxchasi, mevalar tasvirlari, parafin va gipsdan quyilgan meva-sabzavotlarning mulyajlari, qush va parrandalarning tulumlari, rasm kompozitsiyalar ishlash bo'yicha bosqichlar asosida tayyorlangan nashrli plakatlar va boshqa ko'rgazmalar kiritiladi. Yana bu ko'rgazmalar turiga tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari, plakatlari, san'at asarlari to'plangan albomlar, papkalar, diapozitivlar, kinofilmlar, kinofragment, diafilmlar ham kiritiladi. Ko'rgazmalarning har ikki turi ham dars samaradorligini oshirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Faqat bu ko'rgazmalarni o'z vaqtida, o'z o'rnida ishlata bilish kerak.

Ko'rgazmali o'qitishning eng foydali turlari borki, bu o'qituvchini dars konspektini tuzishda tayyorlaydigan va dars materialini tushuntirish jarayonida sinf doskasiga chizib ko'rsatadigan rasm suratlaridir. Umuman, ko'rgazmali o'qitishning samarali bo'lishi, eng awal, maktabda mutaxassis oliy ma'lumotli rassom-pedagogning bo'lishi va tasviriy san'at kabinetining tashkil etilishiga bog'liqdir. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda muntazam holda foydalaniladigan metod bu amaliy ishlar metodi bo'lib, bu metod tasviriy san'atning hamma mashg'ulot turlarida qo'llaniladi. Ma'lumki, maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida o'qituvchi yangi mavzu materialini tushuntirib bergach, shu mavzu bo'yicha o'quvchilar egallagan bilim-malakalarini amaliyotda sinab ko'rish uchun dars maxsus

qism (25—30 minut)larga ajratiladi. Bu davrda yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarga berilgan amaliy vazifalar bajariladi. Amaliy ishlar davrida o'quvchilar rasm ishlab, kompozitsiya yaratadilar. Haykal va qurish, yasash ishlari amaliyoti bilan, yana san'at va me'morchilik asarlarining tahlili bilan shug'ullanadi. Amaliy ishlar metodi — o'quvchilar bajarayotgan ishlar ustidan nazorat o'tatish, o'quvchilarning xato-kamchiliklarini tuzatish, individual yordam, yaxshi amaliyotchilarni taqdirlash, yomon ishlayotganlarga tanbeh berish, kamchiliklarini bartaraf etish yo'llarini alohida daftarda yoki o'quvchi daftarining bir chetida ko'rsatish, kamchilikni o'qituvchi nazoratida tuzatish, ko'pchilik o'quvchilar qiynalayotgan o'rinlarni sinf doskasida ko'rsatib berish kabi uslublar jarayonida va mazmunida ifodalanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim-malakalarini nazorat qilish va baholash o'quvchilarga berilayotgan bilim-malakalarning har tomonlama asoslangan, ko'nikma holatiga kelgan bo'lishi uchun ularda shakllangan bilim-malaka va ko'nikmalarni nazorat qilib borish ta'lim samaradorligining asosiy va bosh omili hisoblanadi. Bu haqda ulug' chex pedagogi Y.A. Komenskiy ham alohida to'xtalib, o'quvchilarda shakllantirilgan bilim-malakalarni muntazam holda ko'rib-kuzatib borish juda zarurligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bugungi kunda ham bu masala o'qituvchilarning eng dolzarb vazifasi bo'lib, o'quvchilarning bilim-malakalari zamon talabi darajasida bo'lishini nazorat qilib borish muhim bo'lib qolmoqda. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish va o'quvchilar bilimini nazorat qilish — baholashda pedagogikaning og'zaki so'rov, yozma (tasviriy) va amaliy ishlar bilan bog'liq nazorat metodlaridan foydalaniladi. Og'zaki nazorat, asosan, savol-javoblar mazmunida olib boriladi. Bu nazorat ko'proq vaqt talab qiladi. Shuning uchun tasviriy san'at o'qituvchisi og'zaki nazoratning reyting va test uslublaridan ham foydalanadi. Og'zaki nazorat - san'at nazariyasi, san'at tarixi va tasviriy faoliyatning ilmiy asoslari bo'yicha olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- to'g'risidagi yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar PF-5538-son Farmoni.

S. Abdiraulov Tasviriy san'at atamaları. Toshkent- 2003

R.Hasanov. “Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi” Toshkent.-“Fan”.2004

Asosiy darsliklar va o'quv qo'lihanmalar I. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom. - T.,2001.

Abdiraulov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., “Ilm-Ziyo”, 2006.

Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - T., “Aloqachi”, 2007.

Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. -T., “G'afur G'ulom”, 2004.

Nabiyev M.N. Rangshunoslik. T., “O'qituvchi”, 1995

G'afarovna J. H. The Importance of Project Education in Improving the Creative Activity of Students in Primary Grade Mother Tongue Education //American journal of science and learning for development. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 203-206.

Hamroyev A., Jumayeva H. Effectiveness criteria and experimental results of designing students' creative activities in primary class mother tongue education //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 420. – C. 10007.